
SHOKIRJON AHMADJONOV UCHUN UNUTILMAS KUN

Kecha Prezident Shavkat Mirziyoev Yoshlar kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston" bog'ida tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etib, "Besh tashabbus" yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan pavilyonlar faoliyati bilan tanishdi, yoshlar bilan muloqot qildi.

Kechagi kun Rishton tumanida faoliyat yuritayotgan "Mingboshi Keramik" kulolchilik klasteri rahbari Shokirjon Ahmadjonov uchun unutilmas bo'ldi.

Kechagi tadbirda rishtonlik yosh tadbirkor Prezidentimiz bilan suhbatlashdi. Suhbat davomida davlat rahbari yosh tadbirkorning olib borilayotgan ishlaridan xursand ekanligini ta'kidlab, uning keyingi faoliyatiga omad tiladi. Shuningdek, Rishton kulolchiligini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar muhokama qilindi.

2022-07-01 09:16:32